

**“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR: DAVLAT, HUQUQ VA ADOLAT  
TAFAKKURI TIMSOLI” MAVZUSIDA YOZGAN MAQOLASI**

**Musurmonova Hulkarning**

*Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 2-kurs 424-guruh talabasi*

*"Adolat bilan ish ko'rmog' — davlatning umrini uzaytirur, zulm esa saltanat poydevorini kemirguvchi qurt kabidir. Hukmdorning ko'ngli elning tinchligida, elning tinchligi esa qonun ustuvorligidadir."*

**Zahiriddin Muhammad Bobur**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning davlat va huquq sohalaridagi tutgan o'rni va uning adolat sohibi ekanligi va u tuzgan davlat va saltanat farovon hayot kechirishi yo'lidagi xizmatlari va shu o'rinda Boburning davlat qurilishi, huquqiy qarashlari va adolat tushunchasi tahlil qilinadi.*

**KIRISH**

Zahiriddin Muhammad Bobur bizning shonli tariximizda nafaqat buyuk sarkarda va zabardast shoir, balki ulug'vor davlat arbobi va qonunshunos sifatida ham etirof etiladi. Uning hayoti va faoliyati murosasiz kurashlar, yuksak g'alabalar va eng muhimi, adolat tamoyillariga sodiqlik namunasidir. Bobur davlat va uning boshqaruvi sohasida ham yuksak islohotlar bilan davlat rivojiga o'zini hissasini qo'shgan buyuk sarkardadir chunki Bobur eng yosh taxtga chiqqan hukmdorlar ichida o'zining munosib aqli va o'tkir zehni bilan ajralib turuvchi sarkarda.

Bobur o'z faoliyatini boshlagan davrda Movarounnahr va Xurosonda og'ir parokandalik yuz tutgan edi. O'sha davrda Bobur markazlashgan davlat va huquqiy tartibot ishlab chiqish g'oyasini o'zining strategik boshqaruvining asosiga olib chiqdi. Chunki Bobur mamlakatdagi tarqoqlikni huquqsizlikning asosi deb bilardi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z qo'shini va davlat apparatida qat'iy intizom va qonun talablarini o'rnatdi. Zero uning nazdida qonun barcha beklar va saroy amaldorlaridan tortib, oddiy xalq vakiligacha barobar edi. Bularning hech biri qonunsiz jazodan qutilib qololmasdi.

Bobur islohotlari natijasida u tuzgan Hindistondagi ulkan saltanatdagi boshqaruv huquqiy qoidalar bilan mustahkamlandi.

U o'zi tuzgan Boburiylar imperiyasidagi boshqaruvni "vazirliklar" va "devonlar" tizimi orqali huquqiy jihatdan tartibga soldi. Bu tizim har bir ijtimoiy qatlamning o'z huquq va majburiyatlariga ega bo'lishini ta'minladi.

Bobur shunchaki amaliyotchi hukmdor emas, balki nazariyotchi huquqshunos ham edi. Uning "Mubayyin" asari o'sha davr qonunchiligi, ayniqsa, soliq va moliyaviy huquq sohasida inqilobiy ahamiyatga ega bo'ldi. "Mubayyin" asari Boburning Hindistonga yurishlari davrida yozilgan bo'lib, bu asarda Movarounnahr va

Hindistonga oid o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo'yicha muhim ma'lumotlar jamlangan<sup>39</sup>.

Asarda soliq turlari va uning huquqiy asoslari aniq ko'rsatib berilgan. Bobur soliq siyosatiga juda ham adolat bilan yondashgan chunki Bobur xalqning zimmasiga og'ir yuk tushmasligi va davlat va fuqaro o'rtasidagi muvozanatni saqlashda adolatli bo'lgan hukmdor. Ushbu asarda Bobur iqtisodiy huquq sohasida muhim o'zgarishlar haqida yozib qoldirgan. Bunga binoan Bobur savdogarlar va hunarmandlar uchun imtiyozli huquqiy muhit yaratdi. Karvon yo'llaridagi xavfsizlik uchun shaxsan hukmdor javobgar ekanligi qat'iy belgilandi. Bu esa savdo-iqtisodiy munosabatlarning huquqiy himoyasini kuchaytirdi.

Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari „Boburnoma“ shunchaki avlodlar uchun esdalik emas, balki bu adolatli boshqaruv kodeksi sifatida davlatni boshqarish bo'yicha muhim manbadir. Eng e'tiborlisi shundaki, Bobur bu asarda o'ziga nisbatan ham tanqidiy jihatdan yondashgan. Unga ko'ra Bobur o'z xatosini tan olish - bu eng og'ir mas'uliyat va adolatni qaror toptirish sifatida qaraydi. Bu esa o'z navbatida Bobur ilm jihatidan ham, o'zini xatolarini tan oluvchi yuksak qudrat sohibi ekanligidan dalolat beradi. „Boburnoma“ asarida shunday jumla bor:

«Boburnoma»da otasining shunday bir adolatini aytib o'tadi. Bir karvonni qor bosib, odamlari o'lganda, ikki yilcha o'sha mulkni saqlab egalariga bergan, deydi<sup>40</sup>. Bu qisqagina jumla orqali davlat boshqaruvi sohasida unga adolat otasi tomonidan o'tganligiga guvoh bo'lamiz. Chunki Boburning otasi Umarshayx Mirzo ham juda adolatparvar inson bo'lgan. Shu o'rinda Bobur o'z otasini ta'riflash jarayonida uning otasi hech qachon shaxsiy mulk va xalqning mulkini hech qachon aralashtirib yubormaganligini ta'kidlagan.

"Boburnoma"da yozilishicha, Bobur askarlari biror qishloqdan o'tganda, dehqonlarning ekiniga zarar yetkazsa yoki ruxsatsiz biror narsa olsa, ular qattiq jazolangan. Bu — oddiy xalqning mulkiy huquqlarini himoya qilishning yorqin namunasidir. Bu ham Boburning adolatli inson ekanidan dalolatdir.

Bobur davlat tuzishda va davlatchilik tarixida Amir Temurning siyosatini davom ettirgan hukmdor hisoblanadi. Bobur uchun adolat bilan birgalikda davlatchilikda oddiy xalq bilan ham balki dushman taraf bilan ham yaxshi muomalaga kirishish birinchi o'rinda turgan.

Bu borada Amir Temurning bir siyosati bor edi: dushman tomonga yurish qilmoqchi bo'lsa, o'sha yerning chegarasidagi odamlar bilan yaxshi muomalaga kirishardi. Bobur esa bu siyosatni o'zining hukmronlik davrida qo'llab brogan ya'ni Hindistonni egallashidan oldin u yerdagi odamlarga o'zining adolatini va qudratini doim ko'rsatib kelgan. 1525 yilda Dehli sultoni Ibrohim Lo'di va qarindoshi Davlatxon o'rtasida janjal kelib chiqadi. Va Davlatxon Boburdan yordam olmoqchi bo'ladi, bu paytda Bobur ancha kuchga ega bo'lgan.

<sup>39</sup> <https://yuz.uz/uz/news/zahiriddin-muhammad-boburning-eronda-saqlanayotgan-mubayyin-asari-fotonusxasi-yurtimizga-olib-kelindi>

<sup>40</sup> <https://kun.uz/news/2021/02/13/amir-temurning-eng-yaxshi-xususiyatlari-boburda-aks-etgan-boburshunoslar-davrasida?ysclid=mlm27e6v3c313913333>

Bundan tashqari, Rajput hukmdori Rano Sanga ham xat yozadi va Ibrohim sultonga qarshi jang qilishni taklif qiladi. Shunga ishongan Bobur yurish boshlaydi va bu paytda uning qo'shini 12 ming atrofida bo'lgan. Keyinchalik ular xiyonat qilib jang qilishdan bosh torsa-da, oz sonli qo'shini bilan Ibrohim sultonni yengadi.

Umuman olganda, Bobur Amir Temurga o'xshagan haqiqiy siyosatchi bo'lgan, temuriylar davlatining eng yaxshi an'alarini Hindistonga olib borgan. «Temur tuzuklari»da hokimiyat uchun kurashda barcha safdoshlari bilan yakkama-yakka gaplashgani aytiladi. Bobur ham Hindiston yurishidan avval shunga amal qilgan. Amir Temurning eng yaxshi xususiyatlari Boburda aks etgan<sup>41</sup>.

Bobur o'zi tuzgan imperiyada yana bir sohada adolatni qat'iy ta'minlagan inson. Ya'ni u tuzgan saltanat Hindistonda bo'lganligi sababli u yerdagi hindlar va musulmonlar o'rtasidagi munosabatlarda adolat bilan ish tutgan. Diniy bag'rikenglik siyosatini davlat boshqaruvida ta'minlagan. U yerdagi mahalliy aholining diniga, urf-odatlariga hech qanday qarshilik qilmagan. Butun mamlakatda insonlarning din erkinligi va huquqlarini ta'minlagan odil hukmdordir.

Bu borada Bobur o'g'li Humoyunga shunday vasiyat qoldiradi:

“ o'g'lim, sen turli dinli xalqlar yashaydigan o'lkaga podshox bo'lding. Shunday ekan ularning diniga va urf-odatlariga hurmat bilan qara. Shundagina sen haqiqiy adolatli hukmdor bo'lasan”.

Bu vasiyat nafaqat Boburning o'g'liga bergan fikrlari balki bugungi kundagi inson huquqlari deklaratsiyasi tamoyillari bilan hamohangligining isbotidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur boshqaruvi davrida adolatni ta'minlab turuvchi eng muhim bo'g'in sudlar edi. Bobur sudlar faoliyatini qat'iy tartibga sogan. U sud tizimida faoliyat yuritayotgan qozilarning mustaqilligini ta'minlash barobarida ularning adolatli hukm chiqarishini shaxsan o'zi ham nazorat qilib turgan.

Bundan tashqari Bobur haftaning ma'lum kunlarida “arzi-dod” qiluvchilarni mustaqil qabul qilgan. Bu esa o'z navbatida oddiy xalq vakillariga ham bevosita oliy hokimiyatga murojaat qilish huquqini ta'minlagan. Bu borada ham Boburning adolati barcha uchun teng bo'lgan.

Bobur nafaqat adolat sohibi, balki insonparvar hukmdor sifatida ham nom qoldirgan. U haqida ayrim manbalarda shunday deyilgan. “Xurosondan qaytayotganda, qishning izg'irin sovug'ida qoladi. Safdoshlari tog' yonbag'ridagi g'orga kirib dam olishni taklif qilishganda ham: «Hamma sovuqda qolib men pana bo'lsam, bu insofdanmas”, deya rad qiladi<sup>42</sup>.

Bundan ko'rinib turibdiki, Bobur xalq dardi va xalq quvonchi hamda ko'pchilik insonlar uchun munosib qayg'uradigan insonparvarlik tuyg'usi yuqori inson hamdir.

Bobur davlatida adolatli boshqaruv bilan birgalikda barcha bilan yaxshi munosabat va muomalaga kirishish ham muhim o'rin tutgan. Yaxshi muomalaga kirishish esa aksar davlat hukmdorlariga xos. Bobur yaxshi munosabatga kirishishni adolat bilan teng olib borish kerak deb bilgan .

<sup>41</sup><https://kun.uz/news/2021/02/13/>

<sup>42</sup> <https://kun.uz/news/2021/02/13/amir-temurning-eng-yaxshi-xususiyatlari-boburda-aks-etgan-boburshunoslar-davrasida?ysclid=mlm27e6v3c313913333>

Chunki davlat arboblarni gapirganda ularning rabti, zabti va tuzuki degan xususiyatlariga qaraladi. Zabti – biror yerni egallash, rabti – muomala qilish, tuzuk esa boshqarish<sup>43</sup>.

Bobur bu borada ham farzandiga ya’ni, Komronga yozgan nasihat xatida ham: «Davlatni boshqarmoqchimisan, odamlarni doim yoningga chaqirib tur, ular bilan yaxshi muomalada bo’l», deydi.

Bundan ko’rinib turibdiki Bobur o’zidagi qudratlilik va adolatlilikni farzandlariga va ularning tarbiyasida ham qo’llagan.

Zahiriddin Muhammad Bobur qaysi sohada faoliyat yuritsa ham o’sha sohadagi qiyinchiliklarni va mushkulliklarni qalam bilan ifodalagan shoir hamdir. U nafaqat adabiyot sohasida balki davlatchiligimizni rivojlantirishda ham o’zining shoirlik mahoratini ham namoyon qilgan shoh va shoir desak ham o’rinlidir. Zero u o’g’li Humoyunga yozgan maktubida davlatchilikda, mamlakatni boshqarishda yurt sardori hamisha atrofdagi beklar, hayotiy tajribaga ega shaxslar bilan mashvarat qilishi, yor-birodarlarini g’animat bilib, ularning suhbatini va maslahatlarini inobatga olishiga e’tibor qaratilganligini ko’ramiz<sup>44</sup>.

Bu satrlar, tarbiyaviy ahamiyatidan tashqari, temuriylar saltanatida davlatni boshqarish, ayniqsa, podshoh bir qarorga kelishda bamaslahat ish ko’rishi lozimligi talqinida berilishi diqqatga molik: “ Agar mening rizoimni tilarsen, xilvatninishliqni va el bila kam ixtilotliqni bartaraf qilg’il. Kunda ikki navbat iningni va beklarni ixtiyorlarig’a qo’ymay, qoshingg’a charlab, har maslahat bo’lsa kengashib, bu davlatxohlarning ittifoqi bila har so’z — unga qaror bergaysan”. Bu yerda esa Boburning xalqni bilan ya’ni uning manfaatlarini ustun bilgan adolatli podshoh siymosini ko’ramiz.

Quyidagi ruboiyda Bobur el bilan birga bo’lish, ularning qadriga yetish va hamisha odam bir-biriga g’animat va aziz bo’lganligi bois, ehtiromini bajo keltirishdek yuksak fikrni bildirganki, yuqoridagi qarashlarini shoirona ifodalar bilan to’ldirgan:

Ahbob, yig’ilmoqni farog’at tutungiz!  
Jam’iyatingiz borini davlat tutungiz!  
Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun,  
Bir-birni necha kuni g’animat tutungiz!  
Xulosa.

Zahiriddin Muhammad Boburning davlat, adolat va huquq haqidagi qarashlari asrlar osha o’zining qiymatini bugungi kunda ham saqlab kelyapti. U barpo etgan saltanat nafaqat uning harbiy kuchi bilan, balki u tuzgan huquqiy tartibot va adolatli qarorlari bilan ham uzoq yashadi. U nafaqat buyuk sarkarda balki o’zining adolati va yuksak qudrati bilan davlatchilik rivojiga ulkan hissa qo’shgan hukmdor sifatida tilga olinadi. Bugungi kunda ham O’zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida uning huquqiy va adolatli boshqaruv fazilatlarini biz uchun ma’naviy xazina bo’lib xizmat qiladi. Bobur siymosi biz uchun adolat va haqiqatning chinakam timsoli bo’lib qoladi.

<sup>43</sup> [kun.uz/news/](http://kun.uz/news/)

<sup>44</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/hasan-qudratullaev-boburnoma-asrori-kaliti.html>

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. „Boburnoma” asari
2. <https://yuz.uz/uz/news/zahiriddin-muhammad-boburning-eronda-saqlanayotgan-mubayyin-asari-fotonusxasi-yurtimizga-olib-kelindi>
3. <https://kun.uz/news/2021/02/13/amir-temurning-eng-yaxshi-xususiyatlari-boburda-aks-etgan-boburshunoslar-davrasida?ysclid=mlm27e6v3c313913333>
4. <https://kun.uz/news/2021/02/13/>
5. <https://kun.uz/news/2021/02/13/amir-temurning-eng-yaxshi-xususiyatlari-boburda-aks-etgan-boburshunoslar-davrasida?ysclid=mlm27e6v3c313913333>
6. [kun.uz/news](https://kun.uz/news)
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/hasan-qudratullaev-boburnoma-asrori-kaliti.html>